



**BUTUN JAHON VA O'ZBEKISTON REPUBLIKASI IQTISODIDA
LOYIHA MENEJMENTINING TUTGAN O'RNI VA UNI
RIVOJLANTIRISHGA BO'LGAN TALABLAR**

Nasrullahov Feruz Mengliyevich – Qarshi davlat texnika universiteti

“Biznes va boshqaruvi” kafedrasi assistenti, mustaqil izlanuvchi,

E mail: innovate407@gmail.com

Anotatsiya. Mazkur maqola zamonaviy sohalardan biri bo'lgan Project Management ya'ni loyiha menejmentining nazariy asoslari, uning jahon iqtisodiyotidagi o'rni, ilg'or davlatlar tajribasi hamda raqamli transformatsiya sharoitida bu sohaning rivojlanish istiqbollari tahlil qilinadi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida loyiha menejmentining tutgan o'rnini loyiha menejmenti tamoyillarini joriy etish zarurati va imkoniyatlari ham ochib berishga qaratilgan. Hozirgi davrda mamlakatlar iqtisodiyotining jadal rivojlanishi davrida yangidan yangi sohalarning vujudga kelishi va ularning boshqaruvi shakllarinig o'zgarish jarayonlarida loyiha boshqaruvi va uning mutaxassislariga bo'lgan talab tobora ortib bormoqda. Maqolada iqtisod, sanoat sihlab chiqarish sohalarida loyiha menejmentining ahamiyatliligi muallif tomonidan turli yondashuvlar bilan ko'rib chiqqilgan. Buning asosida xususan O'zbekiston Respublikasida Project Management ning katta ahamiyatliligi va dolzarbliji asoslangan.

Kalit so'zlar. Loyerha, boshqaruvi, tashkilot, sanoat, menejment, ishlab chiqarish, iqtisod.

Kirish. Bugungi globallashuv va raqamli iqtisodiyot sharoitida loyihalarni samarali boshqarish iqtisodiy taraqqiyotning muhim omillaridan biriga aylanmoqda. Xususan, so'nggi o'n yilliklarda jahon miqyosida infratuzilma, energetika, axborot texnologiyalari, sog'lijni saqlash hamda ta'lif sohalarida yirik hajmdagi loyihalarning amalga oshirilishi loyiha menejmentining iqtisodiy samaradorligini yana bir bor tasdiqladi. Maqolaning dolzarbliji shundan iboratki, bugungi kunda xalqaro iqtisodiy muhit tobora murakkablashib borayotgan bir paytda,

samarali loyiha boshqaruvi nafaqat individual korxonalar, balki butun mamlakatlar darajasida raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qilmoqda. Bundan tashqari, barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish yo‘lida ham loyiha menejmenti muhim vosita sifatida e’tirof etilmoqda.

Zamonaviy dunyoda iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyot ko‘plab yangi yondashuvlarni, jumladan, samarali loyiha boshqaruvini talab qilmoqda. Xususan, O‘zbekistonda so‘nggi yillarda olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlar, yirik infratuzilma loyihalari, raqamli iqtisodiyotga o‘tish va xususiy sektorni rag‘batlantirish tashabbuslari natijasida loyiha boshqaruviga bo‘lgan ehtiyoj sezilarli darajada ortmoqda. Loyerha boshqaruvi — bu belgilangan maqsadlarga erishish yo‘lida vaqt, byudjet, resurs va sifat omillarini uyg‘unlashtirib, tizimli yondashuv asosida boshqaruvni tashkil etish jarayonidir. Bugungi kunda ushbu yondashuv nafaqat yirik korxonalar va davlat tashkilotlarida, balki kichik biznes subyektlari, startaplar va nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatida ham tobora dolzarb tus olmoqda. O‘zbekistonda so‘nggi yillarda loyiha boshqaruvi bo‘yicha xalqaro standartlarga asoslangan yondashuvalar joriy qilinmoqda, xorijiy tajriba o‘rganilmoqda, malakali mutaxassislar tayyorlanmoqda va tegishli qonunchilik bazasi shakllantirilmoqda. Bu jarayonlar iqtisodiy samaradorlikni oshirish, investitsion muhitni yaxshilash hamda ijtimoiy loyihalarning natijadorligini ta’minlashga xizmat qilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 24-iyuldagagi “O‘zbekiston Respublikasida loyiha boshqaruvi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5120-sonli farmoni [1] ham yuqorida yuritilgan fikrlarning yaqqol misoli bo‘la oladi. Bundan tashqari 2017-yil 27-iyuldagagi PQ-3150-sonli qaror [2] bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Loyerha boshqaruvi milliy agentligi tashkil etilishi hamda O‘zbekiston Respublikasi Loyerha boshqaruvining yagona milliy axborot tizimi tashkil etilishi, mamlakatimizda sohaning rivojlanishi tashqi hamdo’st mamlakatlardan orttda qolmasdan ildamlayotganini aks ettiradi.

Adabiyotlar tahlili.

Loyerha menejmenti, umumiylar maqsadlarga erishish uchun resurslar, vaqt, va moliyaviy mablag‘larni samarali boshqarish

jarayonidir. Bu soha haqidagi ilmiy adabiyotlar ko‘plab yondashuvlarni o‘z ichiga oladi. Kerzner Harold ”Loyiha boshqaruvi: rejalarshirish, jadvallah va nazorat qilishga tizimli yondashuv” (2017) nomli kitobida [3] loyiha menejmentining tizimli yondashuvini ta’kidlaydi, unda loyiha boshqaruvining har bir bosqichi - boshlanish, rejalarshirish, amalga oshirish va nazorat qilish - alohida strategik ahamiyatga ega. Shu bilan birga, loyiha menejmentining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun muvofiqlik, vaqt va resurslarni boshqarishning ahamiyati ko‘rsatilgan. Ralf Müller va Rodney Turner (2010)[4] xalqaro tajribalarga tayanib, loyiha menejmentining iqtisodiy samaradorlikni oshirishdagi o‘rnini o‘rganishdi. Ular, shuningdek, loyihalarning strategik ahamiyatini va iqtisodiy o‘sishga qo‘sghan hissasini ko‘rsatganlar. Ularning tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, muvaffaqiyatli loyihalar ko‘pincha milliy iqtisodiyotlar uchun ijobiylar ta’sir ko‘rsatadi, chunki ular innovatsiyalarni joriy qilish, ish o‘rinlarini yaratish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga olib keladi. Risklarni boshqarish loyihalarning muvaffaqiyatini ta’minlashda muhim omil hisoblanadi. David Hillson [5] (2009) loyiha menejmentining risklarni aniqlash va boshqarish jarayonlarini tahlil qilgan. Uning fikriga ko‘ra, loyihalarning samarali boshqarilishi risklarni oldindan aniqlash va minimallashtirishga yordam beradi, bu esa loyiha mablag‘larining samarali ishlatalishiga undaydi.

Yurtimizda O.Mamanazarov, A.Nazirov, D.Inoyatovalar loyiha boshqarish asoslari va metodologiyasini tahlil qilishgan [6] bo’lsa, A.Hasan loyiha boshqaruvida yangi startap, loyihalar kabi tushunchalarni o‘rganib, ularning o‘ziga xos xususiyatlari va amaliy tomonlarini ko‘rib chiqqan [7]. Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, loyiha menejmenti iqtisodiy samaradorlikni oshirish, risklarni boshqarish, innovatsiyalarni joriy qilish va iqtisodiy o‘sishga ta’sir ko‘rsatish bilan bog‘liq muhim rol o‘ynaydi. Loyiha menejmenti samarali boshqarilganida, iqtisodiy o‘sish va rivojlanishga sezilarli darajada hissa qo‘sadi. Shu sababli, loyiha menejmentining iqtisodiyotdagi o‘rni jahon iqtisodiyoti uchun juda muhim ahamiyatga ega.

**Tadqiqot metodologiyasi.**

Mazkur olib borilgan tadqiqot nishoni

bo'lgan masalani o'rghanish uchun tahlil va sintez, qiyosiy tahlil, ikkilamchi manbalar tahlili, nazariy modellashtirish hamda tarixiy yondashuv usullari qo'llanilgan. Tahlil va sintez asosida muammoning nazariy qismi chuqur o'rghanilgan. Qiyosiy tahlilda iqtisodiyot sohasidagi loyiha menejmentining turli kontseptiya va tajribalari taqqoslangan va umumlashtirilgan. Ikkilamchi ma'lumotlar tahlili orqali ilgari mavjud manbalardan ma'lumotlar to'plandi va batafsil o'rghanib mulohaza qilindi. Nazariy modellashtirish asosida iqtisodiyot sohasida loyiha menejmenti va uning rivojlanish jarayoni ohib berilgan. Tarixiy tahlil yordamida tadqiqotning tarixiy aspektlariga e'tibor qaratilgan, muammoning tarixiy asoslari o'rGANilib tahlil qilingan. Tizimli yondashuv asosi orqali o'rGANilayotgan masala, hodisalar o'zaro aloqadorlik darajasi o'rGANilib muammo bir tizim sifatida shakllantirildi.

Natijalar va muhokama.

Loyiha boshqaruvi (Project Management) – bu

muayyan muddat, budjet va resurslar doirasida aniq maqsadlarga erishishga yo'naltirilgan faoliyatni rejalashtirish, muvofiqlashtirish va nazorat qilish tizimidir. Xalqaro amaliyotda loyiha boshqaruvi PMI (Project Management Institute), IPMA (International Project Management Association) va PRINCE2 kabi yondashuvlar orqali tartibga solinadi. Ular loyiha hayotiy tsiklini quyidagi asosiy bosqichga ajratadi:

- **Loyihani boshlash (initiation)** – loyiha maqsadi va asosiy manfaatdor tomonlar aniqlanadi.
- **Rejalashtirish (planning)** – loyiha ish rejasi, byudjeti, vaqt jadvali, xavflarni boshqarish rejasi tuziladi.
- **Ishga tushirish (execution)** – amaliy ishlar boshlanadi va resurslar safarbar qilinadi.
- **Monitoring va nazorat (monitoring & controlling)** – loyihaning borishi ustidan nazorat o'rnatiladi.
- **Yakunlash (closure)** – loyiha yakunlanadi, natijalar baholanadi va xulosalar chiqariladi.



Ushbu yondashuvlar yordamida tashkilotlar o‘z resurslarini oqilona boshqarish, risklarni kamaytirish va yuqori natijalarga erishishga muvaffaq bo‘ladi. 1950-yillarda, **Project Management Institute (PMI)** tashkil topdi. Bu tashkilot loyiha menejmentining standartlarini yaratish va ularni kengaytirish uchun muhim asos bo‘ldi. PMI loyiha menejmentining professional tizimini shakllantirishga yordam berdi. 1950-1960-yillarda AQShda korporatsiyalar o‘zining yirik loyihalarini boshqarish uchun ilmiy va tizimli yondashuvni ishlab chiqqa boshladilar. Bu davrda, **kritik yo'l usuli (Critical Path Method, CPM)** va **Resurslarni boshqarish usullari** ishlab chiqildi. **PMBOK (Project Management Body of Knowledge)** – 1987-yilda PMI tomonidan ishlab chiqilgan PMBOK, loyiha menejmenti bo'yicha barcha asosiy tushunchalar, metodologiyalar, standartlar va yaxlit tizimni taqdim etdi. Bu standart keyinchalik xalqaro miqyosda keng tarqaldi va loyiha menejmentining professional tizimini shakllantirdi. Shu davrda loyihalar yanada murakkablashdi va ko'plab yangi metodologiyalar va vositalar kiritildi. Masalan, **PRINCE2** (Projects IN Controlled Environments), 1989-yilda Britaniya hukumati tomonidan ishlab chiqilgan loyiha boshqaruvi metodologiyasi, o‘zining qat’iy strukturalangan va moslashuvchan yondashuvi bilan ommalashdi. 2000-yillarga kelib, loyiha menejmenti butun dunyo bo'ylab global miqyosda professional tizim sifatida qabul qilindi. Xalqaro kompaniyalar va tashkilotlar o‘z loyihalarini yanada samarali boshqarish uchun global standartlarga asoslanishga intildilar. Shu davrda, **Agile** metodologiyasi (ya'ni, tezkor va moslashuvchan loyiha boshqaruvi) dasturiy ta'minot ishlab chiqarishda muvaffaqiyatli qo'llanila boshladi va loyihalarni boshqarishning yangi paradigmalarini shakllantirdi. Agile metodologiyasi o‘zining samaradorligi va tezkorlik nuqtai nazaridan juda mashhur bo'lib ketdi, ayniqsa IT sohasida. **Lean Project Management** (Yoqilma Boshqaruvi) va **Six Sigma** kabi metodologiyalar ham keng tarqaldi, ular ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarida jarayonlarni yaxshilash va isrofgarchilikni kamaytirish uchun ishlataladi. 2010-yillar davomida, loyiha menejmentining yondashuvlari yanada rivojlanib, raqamli texnologiyalar va ma'lumotlarni boshqarishning yangi vositalarini kiritish boshlandi. **Big Data, sun'iy intellekt** (AI) va **blokcheyn** kabi texnologiyalar loyiha menejmentini yanada



samarali qilish imkonini yaratdi. Shu bilan birga, global biznes va xalqaro hamkorlik kuchaygan sari, loyiha menejmenti **hibrid metodologiyalar** (masalan, Agile va Waterfall metodologiyalarining kombinatsiyasi) va yanada moslashuvchan yondashuvlarni talab qilmoqda.

Zamonaviy iqtisodiyotda loyiha boshqaruvi texnologiyalari kompaniyalar, davlat tashkilotlari, ta'lim muassasalari va notijorat sektorlar uchun ham universal vositaga aylangan. Ayniqsa, murakkab infratuzilma loyihalari, raqamli texnologiyalarga asoslangan tizimlar, ijtimoiy xizmatlar va startaplar doirasida loyiha boshqaruvi yondashuvlarisiz barqaror muvaffaqiyatga erishish qiyin. Jahon miqyosida amalga oshirilayotgan yirik infratuzilma, energetika, transport, texnologiya va raqamli iqtisodiyotga oid loyihalar global iqtisodiy o'sishga katta ta'sir ko'rsatmoqda. Masalan, Xitoyning "Bir kamar – bir yo'l" tashabbusi, AQSHning texnologik startap loyihalari yoki Yevropa Ittifoqining yashil energetikaga oid dasturlari – barchasi loyiha menejmenti vositasida muvaffaqiyatli boshqarilmoqda. Xalqaro moliyaviy institutlar – Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg'armasi, Osiyo taraqqiyot banki kabi tashkilotlar turli davlatlarda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda loyiha menejmentini asosiy instrument sifatida qo'llaydi. Bu institutlar tomonidan mablag' ajratiladigan har bir loyiha aniq rejallashtirilgan, monitoring va audit tizimlari bilan ta'minlangan bo'lishi shart. XXI asrning eng muhim xususiyatlaridan biri bu – iqtisodiyotning raqamli texnologiyalar asosida tubdan o'zgarishidir. Bu esa o'z o'rniда raqamli transformatsiya jarayonlarini rivojlanishiga turtki bo'ldi. Raqamli transformatsiya — bu texnologik vositalar orqali ish jarayonlarini optimallashtirish, tezlashtirish va samaradorlikni oshirish jarayonidir. Bu jarayon, ayniqsa, loyiha menejmenti sohasiga katta ta'sir ko'rsatmoqda. Bugungi kunda deyarli har bir loyiha raqamli vositalar yordamida rejallashtiriladi, boshqariladi va nazorat qilinadi. Raqamli texnologiyalarning loyiha menejmentiga ta'sirini bir qancha platform ava sohalar misolida ifodalashimiz mumkin. Bulutli platformalar (Cloud-based systems) – Google Workspace, Microsoft Teams, Asana, Trello kabi vositalar yordamida jamoaviy ishslash, hujjatlar bilan ishslash, muddatlarni nazorat qilish imkoniyati yaratilmoqda. Sun'iy intellekt



(AI) – loyiha risklarini prognozlash, resurslarni optimallashtirish va avtomatik qarorlar qabul qilishda ishlatilmoqda.

Raqamli transformatsiya nafaqat loyihalarni boshqarish usullarini, balki loyiha menejerining rolini ham tubdan o‘zgartirmoqda. Endilikda loyiha menejeri faqatgina rejorashtiruvchi emas, balki raqamli vositalarni puxta biladigan, texnologik tafakkurga ega strategik rahbar bo‘lishi zarur. Dunyo miqyosida bu borada "**Digital Project Manager**" degan yangi kasb paydo bo‘lmoqda. Bunday mutaxassislar raqamli vositalarni o‘zlashtirgan holda jamoalar bilan masofaviy ishslash, tez o‘zgarayotgan vaziyatlarga moslashish va tezkor qarorlar qabul qilishda muhim rol o‘ynaydi. Raqamli transformatsiyaning tez sur’atlar bilan rivojlanayotgani sababli loyiha menejmenti sohasi doimiy yangilanib bormoqda. Shu bois, zamonaviy iqtisodiyotda loyiha boshqaruvining raqamli versiyasi — bu nafaqat qulaylik, balki zaruratga aylangan. Ayniqsa, pandemiya davridagi masofaviy boshqaruv tajribasi bu boradagi o‘zgarishlarni yanada tezlashtirdi.

Dunyo mamlakatlari orasida loyiha menejmenti eng yuqori darajada rivojlangan davlatlar – AQSH, Germaniya, Buyuk Britaniya, Yaponiya va Janubiy Koreyadir. Ushbu mamlakatlarda loyiha boshqaruvi milliy siyosat darajasida qo‘llab-quvvatlanadi, malakali mutaxassislar tayyorlanadi va xalqaro standartlarga asoslangan metodologiyalar qo‘llaniladi. AQSHda PMI (Project Management Institute) tashkiloti orqali loyiha menejmenti fan sifatida chuqur rivojlangan. Har yili minglab mutaxassislar PMP sertifikatiga ega bo‘ladi. IT, mudofaa, sog‘liqni saqlash va qurilish sohalarida loyiha boshqaruvi asosiy ish uslubi hisoblanadi. Masalan, NASA, Google, Amazon kabi korporatsiyalar o‘z loyihalarini qat’iy bosqichlarda, zamonaviy vositalar yordamida boshqaradi. Germaniyada loyiha menejmenti sanoat va infratuzilma loyihalarida yuqori darajada ishlatiladi. Siemens, Volkswagen, Bosch kabi yirik kompaniyalar ishlab chiqarish zanjirini loyihalar asosida optimallashtiradi. Shuningdek, "Agile", "Scrum" kabi zamonaviy uslublar ham keng tarqalgan. Xitoyda davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlik asosida ulkan loyihalar amalga oshirilmoqda. "Bir kamar – bir yo‘l" loyihasi yuzlab mamlakatlarda infratuzilma, portlar, temir yo‘llar, elektr stansiyalarini qurish orqali Xitoyning global



iqtisodiyotdagi ta'sirini oshirmoqda. Janubiy Koreyada loyiha menejmenti yuqori texnologiyalar va innovatsiyalar asosida rivojlangan. Samsung, LG, Hyundai kabi kompaniyalar raqamli transformatsiyaga asoslangan loyiha boshqaruvi tizimlarini qo'llaydi. Bunda har bir loyiha texnologik yangilik, eksport salohiyati va iqtisodiy o'sishga xizmat qilishi kerak. Shuni ham ta'kidlash joizki Afrika, Lotin Amerikasi va Markaziy Osiyo davlatlarida loyiha menejmenti hali to'liq shakllanmagan. Biroq xalqaro moliyaviy institutlar yordamida amalga oshirilayotgan ijtimoiy va infratuzilmaviy loyihalar orqali bu sohaga qiziqish ortib bormoqda. O'zbekiston ham bu borada faol qadamlar tashlamoqda – davlat dasturlari, raqamli iqtisodiyot va energetika sohasida loyiha asosida boshqaruvi keng joriy etilmoqda. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so'ng iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, infratuzilmani rivojlantirish va turli ijtimoiy-iqtisodiy loyihalarni amalga oshirish yo'lida keng qamrovli tashabbuslarni ilgari surdi. Ayniqsa, 2017 yildan keyin boshlangan "**Harakatlar strategiyasi**", keyinchalik esa "**Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi**" doirasida turli yirik investitsion, sanoat, qishloq xo'jaligi, raqamlashtirish va ijtimoiy sohalarga oid loyihalar amalga oshirila boshlandi. Bu esa zamonaviy loyiha boshqaruvi tizimlariga bo'lgan ehtiyojni keskin oshirdi. Bugungi kunda quyidagi sohalarda loyiha boshqaruvi yondashuvlari faol qo'llanilmoqda:

- **Infratuzilma va qurilish:** Yirik transport yo'llari, metropoliten tarmoqlari, suv ta'minoti va elektr energetikasi loyihalari xalqaro moliya institutlari ishtirokida amalga oshirilmoqda. Bunda loyiha boshqaruvi vositalari – byudjet nazorati, loyiha jadvallari, risk tahlili – keng tatbiq etilmoqda.
- **Axborot texnologiyalari:** Raqamli iqtisodiyotga o'tish, e-hukumat, "Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalı", "Raqamli davlat xizmatlari platforması", "HUMO milliy to'lov tizimi" kabi loyihalarda zamonaviy PM yondashuvlari, shu jumladan, **Agile, Scrum** metodologiyalari tatbiq etila boshladi.
- **Davlat boshqaruvi:** Davlat dasturlarining amalga oshirilishi monitoringi uchun maxsus tizimlar – "**Monitoring markazlari**", "**Loyihalarni boshqarish ofislari (PMO)**" tashkil etildi. Ular orqali muhim ijtimoiy-iqtisodiy loyihalar natijalari nazoratga olinmoqda.



- **Xususiy sektor va startaplar:** O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan ko‘plab IT kompaniyalar, kichik biznes subyektlari va startaplar o‘z loyihalarini boshqarishda xalqaro standartlarga tayangan holda ishlamoqda. Ayniqsa, Texnoparklar, IT-park rezidentlari, vechur fondlar bu borada muhim rol o‘ynamoqda.

Shuningdek, loyiha boshqaruvi sohasida **kadrlar tayyorlash** borasida ham muayyan siljishlar kuzatilmoqda. Toshkentdagi bir qator oliy ta’lim muassasalari (TDIU, TATU, Westminster, Turin universiteti va boshqalar)da loyiha boshqaruvi fanlari kiritilgan. PMI asosida sertifikatlash tizimlari (masalan, PMP – Project Management Professional) asta-sekin joriy etilmoqda. Biroq, ushbu sohada shakllangan ekotizim hali mukammal emas, me’yoriy-huquqiy asoslar va professional mutaxassislar yetishmovchiligi kabi kamchiliklarga duch kelishimiz mumkin. O‘zbekiston iqtisodiyotida so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan chuqr strukturaviy islohotlar, xususan, yirik investitsiyaviy loyihalar, davlat-xususiy sheriklik (DXSh), innovatsion va raqamli texnologiyalarning joriy etilishi loyiha boshqaruviga bo‘lgan ehtiyojni sezilarli darajada oshirmoqda. Talab nafaqat yirik davlat sektorida, balki xususiy biznes, ilmiy-tadqiqot markazlari va xalqaro hamkorlik loyihalarida ham tobora kuchaymoqda. Endi birma bir talab omillarini sanab o’tsak:

- **Investitsiya loyihalarining ko‘payishi:** O‘zbekiston global moliyaviy institutlar (Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki) bilan hamkorlikda yuzlab million dollarlik loyihalarni amalga oshirmoqda. Bu esa xalqaro talab va standartlarga mos loyiha boshqaruvini taqozo etadi.

- **Davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlik DXSh modelining joriy etilishi:** Energetika, sog‘liqni saqlash, ta’lim va infratuzilma kabi sohalarda davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlik shakllarining rivojlanishi natijasida har ikki tomon uchun aniq boshqaruv mexanizmlari va monitoring tizimlariga ehtiyoj ortmoqda.

- **Raqamli iqtisodiyotning kengayishi:** Raqamli platformalar, mobil ilovalar, sun’iy intellekt va ma’lumotlar tahlili kabi texnologiyalarni joriy etishda



iterativ va moslashuvchan (Agile) loyiha boshqaruvi metodologiyalari zarur bo‘lib qolmoqda.

- **Davlat strategiyalarining natijaviyligi:** “Yangi O‘zbekiston – 2030” strategiyasida belgilangan ustuvor yo‘nalishlar – ijtimoiy himoya, ekologiya, yoshlar siyosati kabi sohalarda samarali loyiha boshqaruvi muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O‘z navbatida sohani rivojlantirish maqsadida bir qancha yo‘nalishlarda ishlar olib borilmoqda. O‘zbekiston hukumati loyihalarni boshqarishda barqaror rivojlanish va ekologik barqarorlik tamoyillarini joriy etish bo‘yicha bir qator chora-tadbirlar ishlab chiqdi. Bu, ayniqsa, infratuzilma va qurilish loyihalarida ekologik va iqtisodiy jihatdan barqaror yondoshuvlarni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Hozirgi kunda xalqaro standartlar (PMP, PRINCE2, IPMA)dan foydalanimoqda, biroq O‘zbekiston sharoitiga moslashtirilgan milliy metodologiyalar ishlab chiqish dolzarb masalalardan biri hisoblanmoqda. Bu esa o‘z navbatida “Milliy loyiha boshqaruvi standartlari”ni ishlab chiqish tashabbusini rag’batlantiradi. Respublikada kadrlar salohiyatini oshirish maqsadida loyiha boshqaruvi bo‘yicha maxsus o‘quv kurslari, xalqaro sertifikatlarga tayyorlov dasturlari (masalan, PMP yoki Agile Scrum Master) kengaytirilib, oliy ta’lim tizimida amaliyatga yo‘naltirilgan fanlar soni ko‘paytirilmoqda. Shuningdek, ba’zi universitetlarda loyiha boshqaruvi fanlari joriy qilingan, xalqaro sertifikatlarga ega bo‘lishga intilayotgan mutaxassislar soni ham ortib bormoqda. PMO (Loyihalarni boshqarish ofislari) bir nechta davlat organlarida faoliyat yuritmoqda. O‘zbekiston xalqaro tashkilotlar va dunyoning yetakchi kompaniyalari bilan hamkorlikda loyiha boshqaruvi metodologiyalarini o‘rganish va qo‘llash borasida bir qator loyihalarni amalga oshirdi. O‘zbekiston hukumati xalqaro loyiha boshqaruvi assotsiatsiyalari bilan hamkorlikni kengaytirish maqsadida o‘z xodimlarini va mutaxassislarini xalqaro sertifikatlar olishga yo‘naltirmoqda. Xususan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 24.05.2023 yildagi PF-76-sod “Ma’muriy islohotlar doirasida raqamli texnologiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” farmoni [8] sanab o’tilgan tashkiliy muammolarni bosqichma-bosqich bartaraf etishga katta zamin yaratdi. Farmonda raqamli texnologiyalar vazirligi faoliyatining ustuvor yo‘nalishlari, soha, tarmoq va



hududlarni raqamli transformatsiya qilishning asosiy yo‘nalishlari, xalqaro sertifikatga ega bo‘lgan davlat organlari va boshqa budget tashkilotlarining xodimlariga qo’shimcha ravishda ustamalar belgilanishi xususida chora tadbirlar belgilab o’tilgan. Shular bilan birga kichik va o‘rta biznes yo‘nalishi ham e’tibordan chetda qolmadi. Kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish maqsadida loyiha boshqaruvi metodlarini kengaytirish va qo‘llash bo‘yicha dasturlar ishlab chiqildi. Bu orqali kichik bizneslarni samarali boshqarish, resurslarni optimallashtirish va operatsion samaradorlikni oshirish mumkin bo‘ladi. Muammolarni o‘rganish maqsadida olib borilgan tadqiqotlardan so‘ng ma’lum takliflarga to‘xtaladigan bo‘lsak, quyidagilarga e’tibor qaratsak sohaning rivojlanish tendensiyasini yanada barqarorlashtiradi. Oliygohlarda loyiha boshqaruvi yo‘nalishlarini amaliyatga yaqinlashtirish, kasbhunar markazlarida qisqa muddatli kurslar tashkil etish zarur. Shuningdek, xalqaro tajribaga ega instruktorlar jalb qilinishi lozim. O‘zbekiston sharoitiga moslashtirilgan loyiha boshqaruvi standartlarini ishlab chiqish, PMO faoliyatini qonuniy asosda tartibga solish bo‘yicha normativ hujjatlar ishlab chiqilishi kerak. Loyerha boshqaruvi uchun mo‘ljallangan zamonaviy dasturiy vositalar (Microsoft Project, Jira, Trello, Asana)ni ommalashtirish, davlat organlarida yagona elektron monitoring tizimi yaratish lozim. Har bir yirik loyiha uchun alohida risk boshqaruvi rejasi ishlab chiqilishi, loyiha davomida bosqichma-bosqich monitoring tizimi yo‘lga qo‘yilishi kerak. Loyerha muvaffaqiyatini nafaqat iqtisodiy, balki ekologik va ijtimoiy ta’sir ko‘rsatkichlari asosida baholash tizimi yo‘lga qo‘yilishi lozim.

Xulosa Loyerha menejmenti bugungi kunda nafaqat alohida tashkilotlar, balki butun mamlakatlar iqtisodiy taraqqiyotida muhim strategik vosita sifatida qaralmoqda. Dunyo tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, samarali loyiha boshqaruvi mavjud bo‘lgan davlatlar iqtisodiy o‘sishda, investitsiya jalb qilishda va raqobatbardoshlikni oshirishda ancha ilg‘ordir. AQSH, Germaniya, Xitoy, Janubiy Koreya kabi mamlakatlarda loyiha menejmenti professional va tizimli yondashuv asosida amalga oshiriladi. Zamonaviy iqtisodiyotda loyiha menejerlari shunchaki ijrochi emas, balki strategik fikrlovchi, texnologik yetakchi va jamoa boshqaruvchisi sifatida ko‘rilmoxda. Ayniqsa, raqamli transformatsiya sharoitida bu rol yanada



murakkablashib, sun’iy intellekt, katta hajmdagi ma’lumotlar, onlayn platformalar va boshqa innovatsiyalar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib bormoqda. Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda loyiha boshqaruvi sohasining rivojlanishi davlatning strategik islohotlari, iqtisodiy liberallashtirish jarayonlari va xalqaro hamkorlik siyosati bilan bevosita bog‘liqdir. Bugungi kunda mamlakatimizda yirik infratuzilma loyihalari, raqamli transformatsiya tashabbuslari va startap ekotizimlarining kengayishi bilan loyiha boshqaruvi yondashuvlariga bo‘lgan ehtiyoj sezilarli darajada ortmoqda. Shu bilan birga, tizimda mutaxassislar yetishmasligi, zamonaviy metodologiyalarni to‘liq joriy etmaslik, raqamli boshqaruv vositalarining cheklanganligi kabi muammolar mavjud. Bularni bartaraf etish uchun esa tizimli yondashuv, milliy qonunchilikni takomillashtirish, kadrlar salohiyatini oshirish hamda xalqaro tajribani mahalliy sharoitga moslashtirish muhim ahamiyatga ega. Kelgusida O‘zbekistonda loyiha boshqaruvining to‘liq va mukammal tizimga aylanishi mamlakat iqtisodiyotining samaradorligi, investitsion muhitning jozibadorligi va ijtimoiy loyihalarning natijadorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Bu borada davlat, biznes va ta’lim sohasining yaqin hamkorligi muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA MANBALAR RO‘YXATI

- 1 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 24-iyuldagagi “O‘zbekiston Respublikasida loyiha boshqaruvi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5120-sonli farmoni
- 2 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, №PQ-3150, 27 iyul 2017 yil
- 3 Kerzner, H. (2017) Project Management: A Systems Approach to Planning, Scheduling, and Controlling. 12th Edition, Wiley, Hoboken.
- 4 Müller, R., & Turner, R. (2010). Leadership Competency Profiles of Successful Project Managers. International Journal of Project Management
- 5 Managing Risk in Projects (Fundamentals of Project Management) by David Hillson
- 6 Mamanazarov O.Sh., Nazirov A.X., Inoyatova D.Sh. Loyiha boshqaruvi. – Toshkent, 2019.



- 7 A.Hasan. Project management yoki loyihalar bosh- qaruvi. – Toshkent, 2022.
- 8 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 24.05.2023 yildagi PF-76-son farmoni
- 9 Project Management Institute (PMI). *PMBOK® Guide – A Guide to the Project Management Body of Knowledge*, 7th Edition, 2021.
- 10 “Harakatlar strategiyasi 2017–2021 yillar uchun” – Prezident.uz.
- 11 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni: “Yangi O‘zbekiston – 2030” strategiyasi, 2023 yil.
- 12 www.pmi.org – Loyiha boshqaruvi instituti rasmiy sayti.
- 13 **lex.uz** - O‘zbekiston Respublikasi hukumatining rasmiy huquqiy ma'lumotlar portali.